



ABDULLA QODIRIYNING “ULOQDA” VA “JINLAR BAZMI” HIKOYALARINING STATISTIK TAHLILI

Cho'liyev Ruhillo Abdullayevich, Ph.D

BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrası mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Uloqda” va “Jinlar bazmi” hikoyalaridagi leksemalar so'z turkumlari nuqtayi nazaridan statistik tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: statistika, so'z turkumlari, ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, yordamchi so'zlar, alohida olingan so'zlar.

“So'nggi yillarda statistika turli sohalar kabi lingvistikada ham keng qo'llanmoqda va mazkur usul lingvostatistika nomini oldi. Tilshunoslikda statistik usulni qo'llash shunchaki maqsad emas, balki tilning nihoyatda murakkab tuzilishi uning amal qilish sirlarini bilishda an'anaviy usul bilan birgalikda qo'llanadigan vositadir”. Tilshunos olim S.Rizayev “hozirgi dunyo tilshunosligida til hodidalarini aniqlashda uch bosqich mavjudligi haqida aytib o'tadi: 1) statistik kuzatish yo hisoblash: bunda tekshirilayotgan hodisa haqida aniq ma'lumotlar olish uchun dalillar qayd etiladi; 2) raqamlar bilan berilgan ma'lumotlarning jamlangan natijasi: bunda ma'lumotlar ma'lum bir tizimga solinadi, guruhlashtiriladi, ma'lum bir tartibda joylashtiriladi; 3) tahlil qilish: bunda ikkinchi bosqichdagi natijalarning asosiy mazmuni oydinlashadi, ya'ni miqdoriy tavsifi beriladi”. “Tilshunoslikda statistik usul shunchaki qo'llanmaydi, ma'lumotlarning asosli va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi”.

Statistik tahlil jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratildi: 1. Barcha mustaqil so'zlar (otlar bosh, fe'llarning noaniq shakli olindi). 2. Qo'shma, juft va takror so'zlar bir leksik birlik sifatida ajratildi. 3. Mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmagan birliklar alohida ajratib ko'rsatildi. “Uloqda” hikoyasi tarkibida umumiy takrorlangan holda 2195 ta so'z qo'llangan. Shulardan 79,1% turkiy so'zlar, 11,9% arabiy so'zlar, 9,8% fors-tojikcha so'zlar va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar 0,2 foizni tashkil qilgan ekan. Bundan xulosa qilish mumkinki, hikoya tarkibidagi asosiy leksik birliklarni turkiy turkiy so'zlar egallagan. Qavm-qarindoshlik, kundalik hayotimizdagi maishiy, inson a'zolari va hayvon nomlari keltirilishida turkiy so'zlardan samarali foydalanilgan. Arabcha so'zlardan din bilan bog'liq o'rinlarda, fors-tojikcha so'zlardan esa ta'rif-tavsif va maishiy holatlarda kengroq foydalanilgan. Ushbu tahlil asosida asarda turkiy leksemalarning yetakchi mavqega ega ekanligi Abdulla Qodiriyning ona tilimizga bo'lgan munosabati va so'z bilimdoni ekanligi o'z qatlamga doir so'zlarning o'z davrida qanday mavqega ega bo'lganligini aniqlashda katta imkon beradi. Hammamizga ayonki, leksemalar ma'lum bir grammatik va leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra guruhlarga bo'linadi. Shundan kelib chiqib, “Uloqda” va “Jinlar bazmi” hikoyalari tarkibidagi leksik birliklarni statistik jihatdan so'z turkumlariga ajratib chiqishimiz lozim. Shaxs va narsa-buyumni ifodalovchi so'zlar. Ot predmetlik tushunchasini ifodalovchi mustaqil so'z turkumidir. “Uloqda” hikoyasida ot turkumiga oid so'zlar takrorlari bilan 673 o'rinda qo'llangan. Takrorlarsiz shaxs otlari 45 o'rinda qo'llangan. “Jinlar bazmi” hikoyasida shaxs otlari takrorlar bilan 51 marta, takrorlarsiz esa 19 o'rinda qo'llangan. Shaxs, narsa-predmetni bildiruvchi so'zlarni quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin: a) shaxs bildiruvchi otlar: dada, aka, oyi, Turg'un chavandoz, tog'a, to'ra, qaqshag'ir,





xizmatchi, uloqchi, o'rtoq, yigit, boyvachcha, chavandoz, ota, Sobir tegirmonchi, o'g'il, uka, kishi, pir, karvon, To'g'on, og'ayni, xalq, tomoshachi, Salim, Murod, bola, Haydar soqov, Shokir mishiqi, Nurxon, Eson ko'knori, xizmatkor, Ro'zi qassob, shovvozlar, Orif sarkor, bola-chaqa, to'da, Esonboy, tomoshabin(U). Otam, xola, mehmon, oyim, qo'shni, Hamdam, xumdonchi, kishi, O'sar, aka, boshliq, sozanda, o'yinchi, o'lik, dada, qiz, muallim, afandi, bola(JB). "Uloqda" hikoyasida shaxs otlari 45 orinda takrorlarsiz qo'llangan. "Jinlar bazmi" hikoyasida shaxs otlari takrorlar bilan 51marta, takrorlarsiz 19marta, eng ko'p, ya'ni 7 marta ota so'zi qo'llangan. Ularning tarkibini quyidagicha izohlash mumkin: a) 32tasi tub otlar sanaladi, tub otlarning 11tasi atoqli shaxs nomlaridir, 21tasi esa turdosh shaxs otlaridir. b) 8tasi yasama otlar sanaladi, 1tasi atoqli shaxs nomi, 7tasi esa turdosh shaxs oti sanaladi. Barcha so'zlar affiksatsiya yo'li bilan yasalgan. -chi shaxs oti yasovchi xizmat arabcha, tomosha arabcha, uloq, tegirmon kabi umumturkiy so'zlardan shaxs oti yasagan, boyvachcha (ymumturkiy so'z +tojikcha qo'shimcha), xizmatkor (arabcha so'z+tojikcha qo'shimcha), tomoshabin (arabcha so'z+tojikcha qo'shimcha). b) narsa-buyumni anglatuvchi otlar: choy, qashlog'ich, bosh, dum, hayitlik, egar, yugan, quyushqon, qorinbog', umildiriq, qayish, ustun, kamzul, shim, etik, baxmal, do'ppi, kiyim, ko'z(U); vujud, osh, choy, sho'ra, bard, tok, istak, yamoq, tut, qayrag'och, tol, daraxt, belbog', qosh, poya, yuz-qo'l, salla-chopon, chigirtka, qurbaqa, tovush, hikoya, ko'rpa, so'z, yorug'lik, nur, sharpa, childirma, boyqush, uya, devor, shox, chiroq, ipak, gilam, samovar, qozon, nog'ora, savol, ot, dasturxon, qorin, tanbur, dutor, g'ijjak, rubob, chang, nay, daf, tegirmon, tosh, yurak, suv, ism, soch, yuz, baxmal, kiyim, oyoq, qo'ng'iroq, tovush, tog'-tosh, yulduz, daraxt, shox, og'iz-burun, ko'z, soz, gap(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida narsa-buyum otlari takrorlar bilan 112marta qo'llangan, takrorlarsiz 68marta, eng ko'p "soz" so'zi 8 o'rinda qo'llangan. d) o'rin-joy bildiruvchi otlar: otxona, o'rin, yerto'la(U), uy, o'rin, bog', ishkomb, ust, bozor, shahar, ko'cha, tevarak, maydon, chakalak, uya, vayrona, xara-ko'chalar, nahra, ich, yer, chekka, taraf, old, joy, ora, dunyo, chet, ariq, majlis, maktab(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida o'rin-joy otlari takrorlar bilan 55marta, takrorlarsiz 28 o'rinda qo'llangan, 7marta "maydon" so'zi qo'llangan. e) mavhum tushunchani ifodalovchi otlar: orzu, ko'ngil, qiyomat (zo'r ma'nosida) (U), jin, tangri, pari, dev, fikr, ixtiyor, lazzat, yoshlik, ruh, erk, vahima, xayolat, vahim, ixtiyor, kuch, xotir(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida mavhum otlar takrorlar bilan 19marta, takrorlarsiz 16o'rinda qo'llangan, 4marta "vahim" so'zi qo'llangan. f) faoliyat-jarayonni ifodalovchi so'zlar: odat, to'y-po'y, ish, yig'i(U), qo'rquv, bazm, tiriklik, yomg'ir, ish, voqea, ziyofat, majlis, muomala, vajh, chora, mashq, to'lqin, majol, hol, yel, shodlik, ahvol, hodisa(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida faoliyat-jarayon otlari takrorlar bilan 40 o'rinda, takrorlarsiz 19 marta, 11 marta "mashq" so'zi qo'llangan. g) payt bildiruvchi otlar: kecha, oxirpeshin, qosh, xufton, vaqt, kunduz, umr, kun, juma(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida payt bildiruvchi otlar takrorlar bilan 19, takrorlarsiz 9 o'rinda, 7 o'rinda "vaqt" so'zi qo'llangan. Belgixususiyatni ifodalovchi so'zlar. Predmetning shakli, rang-tusi, mazasi, hajmi kabi belgisini ifodalovchi so'zlar sifat deyiladi. "Uloqda" hikoyasida takror bilan 108ta, takrorsiz 83ta sifat qo'llangan, eng ko'p "qora" so'zi qo'llangan. Ushbu sifatlarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin: a) xususiyat bildiruvchi sifatlari: yaxshi, yomon, jujuncha, o'rischa va h.k; mavhum, quyuy, vahimali, qorong'i, yaxshi, yiroq, o'tkir, zaif, boshqa, bir xil, og'ir, do'nduq, chiroyli, nafis (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida xususiyat bildiruvchi sifatlari takrorlar bilan 28 marta, takrorlarsiz 14 marta, 7 marta "qorong'i" so'zi qo'llangan. b) holat bildiruvchi sifatlari: kir, yoppa-yo'lg'iz, jips, qiziq va h.k (U); daraxtlik, beparvo, yolg'iz, zaif, yorug', og'ir, bosiq, majruh, shodlikli(JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida holat bildiruvchi sifatlari takrorlar bilan 10 marta, takrorlarsiz 9 marta, "bosiq" so'zi 2marta qo'llangan. d) rang-tus bildiruvchi sifatlari: oq, qora, ola, ko'k, chovkar, to'riq(U); faqat "oq" so'zi(JB). e) shakl-ko'rinish bildiruvchi sifatlari: cho'tir, bahaybat(U); katta, uzoq, jingila-jingila, do'nduq, burma, delvagay(JB). f) maza-ta'm bildiruvchi sifatlari: sho'r(U); g) zamon-makon bildiruvchi sifatlari: kelasi, haligi, bulturigi, boyagi, chetdagi, haligi, bu yoqdagi(U); kunduzgi, boyagi,





ilgari, kelasi (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida zamon-makon sifatleri takrorlar bilan 6 marta, takrorlarsiz 4 o'rinda, 2 o'rinda "ilgari" so'zi qo'llangan. Miqdor, son-sanoqni ifodalovchi so'zlar. Son predmetning miqdorini, sanog'ini yo uning son jihatidan tartibini ifodalaydi. "Uloqda" hikoyasi tarkibida takrorlangan holda 73 marta son so'z turkumiga oid so'zlar qo'llangan, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa takrorlar bilan 17 o'rinda, takrorlarsiz 3 o'rinda qo'llangan: a) tartib sonlar: ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi (U); ikkikchi (JB); b) miqdor sonlar: bir, o'n ikki, yuz, ikki yuz, ikki, uch, yuz ming, ikkovimiz, o'nta, yarim va h.k (U); "Jinlar bazmi" hikoyasida miqdor sonlar takrorlar bilan 16 o'rinda, "bir" so'zi 14 o'rinda takroriy qo'llangan, ammo besh o'rinda son ma'nosida emas. "Uloqda" hikoyasida predmet o'lchovini ko'rsatuvchi hisob so'zlar ham qo'llangan, ular quyidagicha guruhni tashkil qiladi: a) yakkalab hisoblash uchun qo'llanadiga hisob so'zlar: dona, tup, nafar; b) to'dalab, guruhlab ko'rsatuvchi hisob so'zlar: to'da, durkum (turkum); d) butun yoki to'daning qismi sifatida qo'llaniladigan o'lchov so'zlar; e) uzunlik, masofani o'lchash uchun ishlatiladigan hisob so'zlar: gaz, odim, qadam; f) vaqt bilan bog'liq hisob so'zlar: soat, vaqt, daqiqa; g) qiymatni bildiruvchi o'lchov so'zlar: so'm. Harakat-holat belgisini ifodalovchi so'zlar. Ravish harakatning belgisini ifodalovchi so'z turkumidir. "Uloqda" hikoyasida takrorlar bilan 109 ta ravish qo'llangan. "Jinlar bazmi" hikoyasida esa 52 o'rinda ravish qo'llangan. Ularni quyidagicha ma'noviy guruhlarga ajratish mumkin: a) holat ravishlari: otliq, yayov, arang, azod, bexos, naridan beri, sekin, birdan, tez birdaniga va h.k (U); ortiqcha, shitobroq, arang, xitoban, tezroq, tanishlarcha, baravar, birga, birdek, mukkamcha (JB); "Jinlar bazmi" hikoyasida tarz ravishlari takrorlarsiz qo'llangan. b) payt ravishlari: endi, bu gal, ertalab, shu choq, shu payt, yana, so'g'un (so'ng), goho va h.k (U); kecha, kechasi, yana, darrov, yangi, bir kun, bugun, ertaga, kech, erta, shu choqda, so'ngra, shu vaqt, bir vaqt, tag'in, hozir (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida payt ravishlari takrorlar bilan 28, takrorlarsiz 22 o'rinda qo'llangan, 6 o'rinda "yana" so'zi qo'llangan. d) o'rin ravishlari: uyoq-buyoq, tashqariga, orqamdan, nariroqda, shu yerda (U); "Jinlar bazmi" hikoyasida o'rin ravishlari takrorlanmagan holatda 8 o'rinda qo'llangan. e) daraja-miqdor ravishlari: azod, juda, biroz, sag'al (sal) (U); ortiqcha, bir oz, ko'p; "Jinlar bazmi" miqdor-daraja ravishlari hikoyasida takrorlarsiz 3 o'rinda qo'llangan.

Olmosh turkumiga oid so'zlar. Ot, sifat, son va ba'zan ravish o'rnida qo'llanuvchi so'zlar olmosh deb ataladi. "Uloqda" hikoyasida olmoshlar takrorlangan holatlari bilan 169 marta qo'llangan, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa takrorlangan holatda 106 o'rinda qo'llangan. Hikoyada olmoshning quyidagi ma'noviy guruhlari mavjud: a) kishilik olmoshi: men, u, biz, sen (U); biz, mana, ular, men, u, siz, sen (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida kishilik olmoshlari takrorlar bilan 49 o'rinda, "men" so'zi 35 o'rinda qo'llangan; b) ko'rsatish olmoshi: shu, ana shu, o'shandog', bu, ana o'sha, ana (U); bu, o'sha, shu, mana (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida ko'rsatish olmoshlari takrorlar bilan 17 o'rinda, takrorlarsiz 6 o'rinda, eng ko'p, 8 o'rinda "bu" olmoshi qo'llangan; d) o'zlik olmoshi: o'z; "Jinlar bazmi" hikoyasida "o'z" so'zi 9 marta qo'llangan; e) so'roq olmoshi: qayer, qaysi, qani, qancha, nima (U); nima qil, necha, nima, qaysi, qayerga, nega, ne, nima bo'l, kim (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida so'roq olmoshlari takrorlangan holda 13, takrorlarsiz 11 o'rinda, "nima" so'zi 3 o'rinda qo'llangan; f) gumon olmoshi: nima uchundir, allakim, allaqancha, allanima, birov, bir odam, bir kishi, allaqaysi (U); kimdir, allaqanday, allanarsa, bir qancha, bir kishi (JB). "Jinlar bazmi" hikoyasida gumon olmoshlari takrorlar bilan 6 o'rinda, takrorlarsiz 5 o'rinda, 2 o'rinda "allaqachon" so'z qo'llangan; g) belgilash-jamlash olmoshi: hamma, har qachon, har kim, har narsa, har qancha (U); hamma, barcha, butun (JB); h) bo'lishsizlik olmoshi: hech kim, hech narsa (U); hech kim, hech bir (JB). Harakat-holat bildiruvchi so'zlar. Harakat ma'nosini anglatuvchi so'zlar fe'l deyiladi: ishlamoq, bilmoq, yugurmoq, ketmoq, kelmoq kabi so'zlar fe'llar namunasiga kiruvchi so'zlar namunasidir. Fe'llar harakat ma'nosidan boshqa yana psixik o'zgarishlar, narsalarning holati va o'zaro munosabatlarini ham anglatadi. Masalan: uxlamoq, yotmoq, o'tirmoq kabi fe'llar holat ma'nosini bildirsa,





cho'chimoq, shodlanmoq, qo'rqmoq kabi fe'llar psixik o'zgarishlarni bildiradi, ko'karmoq, o'smoq kabi fe'llar biologik o'zgarishlarni ifodalaydi. (HO'T) "Uloqda" hikoyasida takrorlar bilan 640 o'rinda fe'l so'z turkumiga oid so'zlar qatnashgan, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa takrorlangan holda 382 o'rinda fe'l qo'llangan. Ularni quyidagicha ma'noviy guruhlariga ajratishimiz mumkin: a) harakat bildiruvchi so'zlar: bormoq, yugurmoq, ichmoq, kulmoq, qashlamoq, tipir-tipir qilmoq, chayqamoq, tepmoq, silkimoq, chopmoq, tushmoq, olmoq, qilmoq, egarlamoq, artmoq, surtmoq, qo'nmoq va h.k(U); boshlamoq, o'rab olmoq, yo'liqmoq, kelmoq, ichmoq, o'ltirmoq, aylanmoq, chilpimoq, bormoq, qaytmoq va h.k(JB); b) holat bildiruvchi so'zlar: yalang'ochlamoq, kuzatmoq, g'ash qilmoq, asramoq, gijinglamoq, qotmoq, yaxlamoq, ola-kula qilmoq, o'nglamoq, bildirmaslik, uyalmoq, hayron qolmoq, kekkaymoq va h.k(U); tuymoq, burkanmoq, tong qotmoq, qutulmoq, qoraymoq, qiynalmoq va h.k(JB); d) nutqiy fe'llari: so'ramoq, demoq, jekirmoq, atamoq, qarg'amoq, buyurmoq va h.k(U); demoq, so'zlamoq, javob bermoq, fotiha o'qimoq, muomala qilmoq, chairmoq, atamoq, so'ramoq va h.k(JB); e) aqliy faoliyat fe'llari: yalinib-yalpog'lanmoq, o'ylamoq(U); o'ylamoq, bilmoq, sezmoq, hayron bo'lmoq, eslamoq, garangsimmoq, esini yig'moq va h.k(JB).

Mustaqil so'zlar tarkibiga kirmaydigan birliklar. "Uloqda" hikoyasi tarkibida 208 o'rinda, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa takrorlar bilan 163 o'rinda mustaqil so'zlar tarkibiga kirmaydigan birliklar qo'llangan. Bularni quyidagicha guruhlariga ajratish mumkin: 1) Yordamchilar: a) ko'makchilar: uchun, degan, bilan, deb, keyin, ustida, ichida, to'g'risida, keyin, tagida, beri, qoshida, ostida(U); "Jinlar bazmi" hikoyasida ko'makchilar takrorlar bilan 36 o'rinda, takrorlarsiz 9 o'rinda, eng ko'p "bilan" va "uchun" ko'makchilari qo'llangan; b) bog'lovchilar: lekin, goh...goh, va, chunki, xoh...xoh, biroq, yoki(U); "Jinlar bazmi" hikoyasida takror holda 22 o'rinda, takrorlarsiz 7 o'rinda, eng ko'p "va" bog'lovchisi qo'llangan; d) yuklamalar: ham, xuddi, axir, faqat, (nah)(U). "Jinlar bazmi" hikoyasida yuklamalar takrorlar bilan 41 o'rinda, takrorlarsiz 9 o'rinda, 28 o'rinda "ham" so'zi qo'llangan. 2) Alohida olingan so'zlar: a) taqlid so'zlar: duv(U); "Jinlar bazmi" da 3 o'rinda; b) undov so'zlar: barakalla, rahmat, balli, hay, voy, hov(U); d) modal so'zlar: ayniqsa, shekilli(U); "Jinlar bazmi" hikoyasida takrorlar bilan 8 o'rinda, takrorlarsiz 7 o'rinda qo'llangan. Shu bilan birga "Uloqda" hikoyasida "ha" tasdiq, "yo'q" inkor, "juda" daraja bildiruvchi so'zi, "edi, ekan, emish va inkor shakldagi emas" to'liqsiz fe'llari, "Jinlar bazmi" hikoyasida esa "edi" so'zi 35, "ekan" va "emas" 1 martadan, "yo'q" so'zi 3 marta, 1 marta "shunday" so'zi "ha" o'rnida qo'llangan.

"Uloqda" hikoyasida ot so'z turkumiga oid so'zlar 30,7 foizni tashkil qiladi. Hikoyada son va olmosh so'z turkumiga oid so'zlar takrorlarsiz oz miqdorda qo'llangan bo'lsa-da, takrorlar hisobiga asar tarkibida salmoqli o'rinni egallagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Қодирий А. Кичик асарлар. – Тошкент: Фафур Фулом, 1969. – 212 б.
2. Қосимхўжаева О. Сўзнинг морфологик таркиби. – Тошкент, 1963. – 47 б.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикология асослари. – Тошкент, 1995. – 127 б.
4. Ризаев С. Ўзбек тилшунослигида лигвостатистика муаммолари. – Тошкент: Фан, 2006. – 296 б.
5. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – 415 b.
6. Сафарова Р. Лексик-семантик муносабат турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 48 б.





7. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Тошкент: Фан, 1975. – 126 б. 8. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 424 б.

